
Prezident maktabi o'quvchilari Farg'ona shahridagi harbiy qismda bo'ldilar. *Ekskursiya harbiy qism o'quv xonalarida o'tkazildi. U yerda tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar, jangovar harakatlar uchun mo'ljallangan o'quv joylari bilan yaqindan tanishib chiqqan yoshlar harbiy xizmat haqida ko'proq tushunchaga ega bo'ldilar. Shuningdek harbiy qism xizmatchilarining maxsus tayyorgarlik jarayonlarini kuzatib, ularning faoliyatlari bilan yaqindan tanishdilar.*

Milliy armiyamiz jahon harbiy maydonlarida eng ilg'or tajribalarini o'zida mujassam etgan bo'lib, ayni paytda milliy jangovar an'analarimizni yuksak sadoqat bilan davom ettirmoqda. Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, boshqaruvning informasion vositalari va harbiy aloqa tizimlarini uyg'unlashtirib kelinmoqda.

2024-01-08 09:24:44